

## O'ZBEKISTON VA KOREYA RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI TURIZM HAMKORLIGINING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI

Yoon Heon-Jong

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix yo'nalishi magistranti Ruis.95415@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlik jarayoni kompleks tarzda tahlil etiladi. Unda hamkorlikning tarixiy shakllanishi, so'nggi yillarda turizm infratuzilmasining bosqichma-bosqich rivojlanishi, shuningdek Hallyu (koreys ommaviy madaniyatining butunjahon miqyosida ommalashuvi) madaniyatining turistik oqimga bo'lgan ta'siri atroflicha yoritiladi. Shu bilan birga, raqamli turizm strategiyalarining yangi imkoniyatlar ochib berayotgan roli ham alohida tahlil qilinadi.*

*Maqolada, KOICA (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi), KTO (Koreya Turizm Tashkiloti) kabi muhim tashkilotlar ishtirokidagi qo'shma loyihalar, Toshkent-Incheon aviaqatnovi orqali amalga oshirilayotgan transport-logistika hamkorligi misolida, madaniy va iqtisodiy diplomatiyaning turizm orqali qanday shakllanayotgani amaliy misollar asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida mavjud rasmiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning ochiq ma'lumotlari va media materiallardan foydalanilgan.*

**Kalit so'zlar:** *KOICA, KTO, Hallyu, raqamli turizm, turizm diplomatiyasi, madaniy almashinuv*

### KIRSH

Turizm – bu nafaqat iqtisodiy faoliyat sohasi, balki xalqlar o'rtasida madaniy ko'prik vazifasini o'taydigan, diplomatik muloqotni mustahkamlovchi va ijtimoiy o'zaro tushunuvni chuqurlashtiruvchi qudratli vositadir. Bugungi global dunyoda turizm orqali mamlakatlar o'z imijini shakllantirib, xalqaro hamjamiyatda madaniy ta'sirini kengaytirishga intilmoqda.

Aynan shu kontekstda O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi turizm aloqalari ham jadal rivojlanib bormoqda. Tarixiy merosga boy O'zbekiston va texnologik hamda madaniy jihatdan kuchli Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik, ikki tomonlama manfaatlar, o'zaro hurmat va madaniy yaqinlik asosida kengayib bormoqda. Bu hamkorlik Hallyu (koreys ommaviy madaniyati) fenomeni, zamonaviy raqamli texnologiyalar, va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlovlar orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Natijada, turizm bugun ikki xalq o'rtasidagi nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va diplomatik rishtalarni mustahkamlovchi vosita sifatida qayta talqin qilinmoqda.

Asosiy qism:

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlik yillar davomida shakllanib, bugungi kunda murakkab, ammo samarali tizimga aylanmoqda. Bu hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri, ayniqsa, infratuzilmaviy asoslarni mustahkamlash va turizm xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan KOICA (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi) loyihalaridir. 2015-yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan Madaniy Ijod Markazi bu boradagi ilk muhim qadamlardan biri bo'lib, turistik kontent yaratish, raqamli reklama vositalarini joriy etish hamda yoshlar uchun amaliy treninglar o'tkazish orqali sohada yangi avlod

mutaxassislarini tayyorlamoqda. Bu markaz nafaqat bilim, balki tajriba beruvchi makonga aylangan bo'lib, yoshlarning turizmga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda va ularni global raqobatga tayyorlamoqda.

Hamkorlikning yana bir muhim jihatini — transport aloqalarining qulay va barqaror shakllanishidir. 2016-yildan boshlab yo'lga qo'yilgan Toshkent-Incheon to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlari bu borada strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu qatnovlar orqali ikki davlat o'rtasidagi sayyohlar oqimi izchil oshib bormoqda. Pandemiya sababli qisqa muddat to'xtatilgan ushbu reyslar 2023-yilda tiklanishi bilan turizm oqimi yana jonlandi. Ayniqsa, Toshkent xalqaro aeroportida koreys tilidagi navigatsiya tizimlarining joriy qilinishi, koreys sayyohlari uchun alohida kutib olish zonalarini, axborot stendlari va ko'mak xizmatlarining mavjudligi xizmat sifati va sayyohlar qulayligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, shubhasiz, turizm orqali mamlakat imidjining ko'tarilishiga hissa qo'shmoqda.

Madaniy merosga asoslangan sayohat yo'nalishlari esa ikki tomonlama turizm hamkorligining eng jozibador qismiga aylangan. KOICA va KTO (Koreya Turizm Tashkiloti) tomonidan ishlab chiqilgan "madaniy izlar marshrutlari" Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarga yo'naltirilgan bo'lib, bu yo'nalishlar koreys sayyohlari uchun maxsus tayyorlangan broshyuralar, gidlik xizmatlari va raqamli hikoyaviy kontentlar orqali boyitilgan. Bu ekskursiyalar faqat tarixiy yodgorliklarni ko'rsatish bilangina cheklanmay, balki O'zbekistonning hunarmandchiligi, xalq urf-odatlarini, milliy oshxonasi bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "Silk Road Soul" brendi ostida targ'ib qilinayotgan bu yo'nalishlar Koreya turizm bozorida ijobiy rezonans uyg'otmoqda.

So'nggi yillarda Hallyu, ya'ni koreys ommaviy madaniyati, turizm sohasida yanada faol rol o'ynay boshladi. KTO tomonidan ilgari surilayotgan "Imagine Your Korea" kampaniyasi doirasida virtual sayohatlar, 360 darajali video turlar, ijtimoiy tarmoqlarda maxsus kontentlar orqali koreys madaniyati O'zbekiston yoshlari orasida ommalashmoqda.

Ayniqsa, Toshkentda o'tkazilayotgan K-pop festivallari, koreys kino haftaliklari va oshxonaga oid tadbirlar koreys turmush tarziga bo'lgan ijobiy munosabatni kuchaytirib, shu orqali Koreyaga bo'lgan sayyohlik qiziqishini oshirmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, koreys tilini o'rganish istagini kuchaytirib, madaniyat va ta'lim o'rtasida o'zaro mustahkam aloqani yuzaga keltirmoqda.

Umuman olganda, ikki davlat o'rtasidagi turizm hamkorligi, bir tomondan, iqtisodiy foyda keltirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirayotgan, o'zaro ishonch va madaniy tushunuvni mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu yo'nalishda qilinayotgan har bir amaliy qadam kelajakda yanada barqaror va chuqur sheriklik asoslarini yaratishi shubhasizdir.

**Xulosa:**

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlik o'zining ilk tarixiy bosqichlaridan tortib, hozirgi zamonaviy raqamli bosqichgacha kengayib, chuqurlashib bormoqda.

KOICA va KTO kabi tashkilotlar, Hallyu ommaviy madaniyati va infratuzilma bilan bog'liq loyihalar orqali bu sheriklik nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelgusida yoshlar diplomatiyasi, ekologik turizm va raqamli innovatsiyalar asosidagi yondashuvlar bu aloqalarni yanada mustahkamlashi kutilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Uzbekistan and South Korea to further develop tourism collaboration," Kun.uz, 2024-02-17. <https://kun.uz/en/news/2024/02/17/uzbekistan-and-south-korea-to-further-develop-tourism-collaboration>
2. "Uzbekistan together with KOICA plan to launch projects worth \$300 mln," Invexi.org, 2024-09-10. <https://invexi.org/en/press/uzbekistan-together-with-koica-plan-to-launch-projects-worth-300-mln>
3. "Gyeongbuk Technopark Empowers Uzbekistan's IT Startup Scene," KoreaTechDesk, 2023-08-10. <https://www.koreatechdesk.com/gyeongbuk-technopark-empowers-uzbekistans-it-startup-scene-through-skill-reinforcement-program>
4. Rakhimov, M. (2022). "Uzbekistan and South Korea relations in the context of transregional and global perspectives." *Journal of Eurasian Studies*, 13(2), 200–211.
5. Steane, H., Hwang, J., & Coluccello, S. (2022). "South Korea's Public Diplomacy Actors in Uzbekistan." *UCL Discovery*.